

KICHIK BIZNES UCHUN MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Qurbanov Zikrilla Xolmuminovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

zikrillakurbanov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15385873>

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarni boshqarish tizimini ishlab chiqish zarurati chuqur tahlil etiladi. Kichik biznes iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati innovatsion yondashuvlar, bandlik darajasini oshirish va bozor raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'yaydi. Shu bilan birga, bu subyektlar ko'pincha moliyaviy resurslarning cheklangani, moliyaviy menejmentdagi tajriba yetishmasligi, kapital oqimini rejalashtirishdagi xatoliklar va tashqi moliyaviy manbalarga yetarlicha kirish imkoniyati yo'qligi kabi muammolarga duch kelishadi. Ushbu maqolada kichik biznesda mavjud moliyaviy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va bunday korxonalar uchun mos moliyaviy boshqaruvin mexanizmlarining zarurligi tahlil qilinadi. Jumladan, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish, xarajatlar va investitsion qarorlarni muvozanatlashtirish, risklarni kamaytirish va likvidlikni boshqarish vositalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamlı texnologiyalarning (ERP tizimlari, bulutli hisob-kitob platformalari, real vaqtli tahlil vositalari) kichik biznes moliyaviy boshqaruvida qanday rol o'ynashi amaliy misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, moliyaviy boshqaruvin, resurslarni rejalashtirish, likvidlik, investitsiya strategiyasi, moliyaviy oqimlar, naqd pul boshqaruvi, kapital struktura, risk menejment, raqamlı moliyaviy texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik, kreditga layoqatlilik, moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili, ERP tizimi, moliyalashtirish manbalari.

DEVELOPMENT OF A FINANCIAL RESOURCE MANAGEMENT SYSTEM FOR SMALL BUSINESSES

Abstract. The article provides an in-depth analysis of the need to develop a financial resources management system for small businesses. Small businesses are an important part of the economy, and their activities play a significant role in ensuring innovative approaches, increasing employment levels, and market competitiveness. At the same time, these entities often face problems such as limited financial resources, lack of experience in financial management, errors in planning capital flows, and insufficient access to external financial sources. This article analyzes the financial problems that exist in small businesses, their causes, and the need for appropriate financial management mechanisms for such enterprises. In particular, special attention is paid to tools for controlling financial flows, balancing costs and investment decisions, reducing risks, and managing liquidity. It also shows the role of modern digital technologies (ERP systems, cloud computing platforms, real-time analytics) in the financial management of small businesses on the basis of practical examples.

Keywords: small business, financial management, resource planning, liquidity, investment strategy, financial flows, cash management, capital structure, risk management, digital financial technologies, financial stability, creditworthiness, financial performance analysis, ERP system, financing sources.

Kirish: Kichik biznes — har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. U nafaqat yangi ish o'rnlari yaratish, balki innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish, ichki bozorni to'ldirish va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o'rinni tutadi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning ahamiyati keskin ortdi, bu esa ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va samarali boshqaruv tizimlari orqali barqarorligini ta'minlash zarurligini yuzaga keltirdi.

Shu bilan birga, amaliyotda ko'plab kichik korxonalar moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha yetarlicha bilim va tajribaga ega emas. Ko'pchilik korxonalar moliyaviy oqimlarni rejalashtirish, naqd pul aylanishini boshqarish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish kabi muhim funksiyalarni professional darajada bajara olmaydi. Bu esa korxona ichki moliyaviy barqarorligini izdan chiqarib, bankrotlik xavfini kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarni boshqarish tizimini ilmiy asosda ishlab chiqish, mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish hamda yechim sifatida integratsiyalashgan boshqaruv modelini taklif qilishdan iborat. Bu orqali kichik korxonalar moliyaviy jihatdan mustahkamlanib, iqtisodiyotni raqobatbardosh holga keltirishga o'z hissasini qo'sha oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarni boshqarish masalasi so'nggi yillarda global va milliy miqyosda ilmiy va amaliy tadqiqotlarning markaziyo yo'nalishiga aylandi. So'ngi yillar davomida bu borada olib borilgan tadqiqotlar moliyaviy oqimlarni rejalashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligini ohib beradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, avvalo, mahalliy biznes muhitining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyaviy boshqaruvning amaliy jihatlariga e'tibor qaratadi. Rahimov A. o'z asarida kichik biznesda moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy elementlarini — naqd pul oqimini nazorat qilish, foyda rejalashtirish va xarajatlar tahlilini amaliy misollar orqali yoritib berdi. Tashpulatova D. esa moliyaviy resurslardan mintaqaviy darajada foydalanish farqlari va ularning kichik korxonalar rivojiga ta'sirini tahlil qildi. Bu yondashuv kichik biznesni hududlar kesimida strategik rejalashtirish zaruratini ko'rsatadi. Gulomova M. tomonidan olib borilgan tadqiqot esa raqamli moliyalashtirish — xususan, FinTech asosida ishlab chiqilgan moliyaviy xizmatlarning samaradorligi va ularning kichik biznesga integratsiyalashuvini o'rganadi.

Rossiyalik olimlar kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kapital tuzilmasini optimallashtirish va strategik moliyaviy rejalashtirish masalalarini chuqur tahlil qilganlar. Xusainov B. strategik rejalashtirishning nazariy asoslari va ularning kichik korxona likvidligiga ta'sirini yoritadi. Polyakov A.N. kichik biznesda moliyaviy barqarorlikka soliq yengilliklari va davlat ko'magining ijobjiy ta'sirini asoslagan bo'lsa, Nikulina Ye.V. esa kredit olishdagi byurokratik to'siqlar, garov siyosati va reyting tizimi bilan bog'liq muammolarga urg'u bergen.

Yevropada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kichik biznesning moliyaviy strategiyasini innovatsion muhit bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Müller R. kichik biznes moliyalashtirishdagi siyosiy bo'shliqlar va ularni bartaraf etish yo'llarini muhokama qilgan bo'lsa, Caputo A. moliyaviy strategiyaning korxona o'sishiga qanday ta'sir qilishini empirik ma'lumotlar asosida isbotlaydi.

AQSh tadqiqotchilari ko'proq analitik modellar asosida ishlaydi. Z-score modeli muallifi Altman E.I. kichik biznesning moliyaviy sog'lig'ini baholash uchun statistik metodologiyalarni taklif etadi. Berger A.N. va Udell G.F. esa banklarning kichik biznesga nisbatan moliyaviy siyosatini tahlil qilib, moliyaviy hisobotlarning sifati kredit olish imkoniyatlariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Accenture Research FinTech texnologiyalarining kichik biznes moliyaviy boshqaruvidagi transformatsion rolini tahlil qilgan.

Osiyo olimlari esa moliyaviy boshqaruvning madaniy va texnologik jihatlarini yoritgan.

Masalan, Nakamura Y. naqd pul oqimiga asoslangan boshqaruv modelini Yaponiyada kichik korxonalar uchun asosiy strategiya sifatida ko'rsatadi. Singapurlik tadqiqotchi Tan H.L. esa Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarda raqamli moliyalashtirish platformalarining samaradorligi, smart kontraktlar va onlayn reyting tizimlarining rolini yoritadi.

Yakuniy manba sifatida OECD tomonidan tayyorlangan xalqaro hisobotda a'zo mamlakatlarda kichik biznesni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash strategiyalari, fond mexanizmlari va kredit siyosatlarining samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Ushbu adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes uchun moliyaviy boshqaruv tizimlari global miqyosda turlicha yondashuvlar orqali shakllanmoqda. Milliy va mintaqaviy tajribalarning umumlashtirilgan modeli kichik biznesda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar nazariy qarashlar, statistik tahlil va empirik metodlarga asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu ilmiy izlanishda ham metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, komparativ (taqqoslama) tahlil, regressiyaviy tahlil va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Maqsad — kichik biznes moliyaviy boshqaruvining zamonaviy modellarini ishlab chiqish, ularning amaliyotdagi qo'llanishini baholash hamda raqamli texnologiyalar orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Birinchi bosqichda tadqiqotning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Bunda O'zbekiston, Rossiya, Yevropa va AQSh olimlarining 2017–2024 yillar oralig'ida chop etgan ilmiy maqola va monografiyalari tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili (literature review) asosida kichik biznesda moliyaviy boshqaruvning eng muhim komponentlari — kapital strukturasini shakllantirish, naqd pul oqimini boshqarish, qarz va investitsiya siyosati, likvidlikni boshqarish kabi yo'nalishlar aniqlab olindi. Shu asosda o'zbek va xalqaro tajribalarning umumiyligi va tafovutlari sistematik tarzda solishtirildi.

Ikkinci bosqichda empirik ma'lumotlar asosida tahlil ishlari olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, OECD, World Bank, va boshqa ochiq manbalardan olingan 2019–2024-yillarga oid moliyaviy ko'rsatkichlar asosida kichik biznes korxonalarining moliyaviy faoliyati, kreditga layoqatlilik, foyda marjalari, likvidlik koeffitsiyentlari, investitsiya faolligi o'rganildi. Ushbu tahlil jarayonida ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion va regressiyaviy tahlillar qo'llandi.

Shuningdek, kichik biznes vakillari bilan so‘rovnama va intervyu o‘tkazilib, amaliyotdagi mavjud muammolar aniqlab olindi.

Uchinchi bosqichda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida kichik biznes uchun moslashtirilgan moliyaviy boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Bu modelda moliyaviy audit, strategik rejalashtirish, naqd pul oqimini boshqarish, risk menejment, va raqamli avtomatlashtirish bosqichlari integratsiyalangan holda ko‘zda tutilgan. Modellashtirish usuli orqali kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirish, foyda rentabelligini ta’minlash va investitsiya jalg qilish salohiyatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi orqali an'anaviy va zamonaviy moliyaviy boshqaruv elementlari uyg‘unlashtirilib, kichik biznes subyektlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladigan moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarni boshqarish strategiyasi tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi, o‘sish sur’atlari va investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omildir. “O‘zagroservis” AJ misolida olingan statistik ma’lumotlar asosida quyida moliyaviy boshqaruvning amaliy holati, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

1-jadval

Tushum va xarajatlar ko‘rsatkichlari (2024-yil, hududlar kesimida)

Aktivlar nomi	2023-yil oxiri	2024-yil oxiri
Asosiy vositalar (qolgan qiymat)	18 352 184	18 045 186
Uzoq muddatli investitsiyalar	421 894 909	422 064 681
- Shundan: Qimmatli qog‘ozlar	261 289 838	261 289 838
- Boshqa investitsiyalar	159 513 081	159 682 853
Deyarli muddati o‘tgan debitorlik qarzlar	72 862 897	84 338 034
Tovar-moddiy zaxiralar	127 335	268 654
Kelajakdagи xarajatlar	40 800 050	43 870 973
Pul mablag‘lari	37 401	263 499
Qisqa muddatli investitsiyalar	7 036 172	6 233 346
Jami aktivlar	599 307 822	613 281 247

Manba: <https://openinfo.uz> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “O‘zagroservis” AJ 2024-yilda jami aktivlar hajmini 599,3 mlrd so‘mdan 613,3 mlrd so‘mgacha, ya’ni 2,3% ga oshirishga erishgan. Bunda asosiy omillar sifatida uzoq muddatli investitsiyalar va kelajakdagи xarajatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarning barqaror o‘sishi qayd etiladi.

Asosiy vositalarning qolgan qiymati 2023-yildagi 18 352 mln so‘mdan 2024-yilda 18 045 mln so‘mga tushgan. Bu kichik miqdordagi amortizatsiya va yangilanish darajasining sustligidan darak beradi. Bu holat kichik biznes subyektlari uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish zaruriyatini bildiradi.

421,9 mlrd so‘mdan 422,0 mlrd so‘mga o‘sish, ayniqsa qimmatli qog‘ozlar (261 mlrd so‘m) hajmining saqlanib qolganligi, korxonaning moliyaviy aktivlar orqali passiv daromad

manbalarini barqaror tutishga urinayotganini ko'rsatadi. Bu kichik biznesda moliyaviy resurslarni nisbatan xavfsiz va uzoq muddatli vositalarga joylashtirish amaliyoti mavjudligini ko'rsatadi.

2023-yilda 72,8 mlrd so'm bo'lgan deyarli muddati o'tgan debitor qarzlar 2024-yilda 84,3 mlrd so'mga oshgan. Bu holat pul oqimlarining sekinlashgani, qarzdorlikni undirishda muammolar mavjudligini anglatadi. Kichik korxonalar uchun bu — aylanma mablag'lar yetishmovchiligi va qisqa muddatli majburiyatlarni bajarishda qiyinchiliklar demakdir.

2023-yildagi 37 ming so'mlik pul mablag'i 2024-yilda 263 ming so'mga oshgan. Bu kichik, lekin ijobjiy ko'rsatkich bo'lib, operatsion likvidlikni tiklash harakatlari borligini bildiradi. Tovar-moddiy zaxiralalar hajmi ham 2 barobarga oshgan, bu esa ehtimoliy talab o'sishi yoki ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga tayyorgarlik belgisidir.

7,03 mlrd so'mdan 6,23 mlrd so'mga pasayish, qisqa muddatli moliyaviy operatsiyalar qisqarganini ko'rsatadi. Bu kichik biznesda tezda likvidlanuvchi aktivlar ulushi kamayayotganidan darak beradi.

"O'zagroservis" AJ aktivlar tuzilmasi kichik biznes uchun barqaror, biroq konservativ moliyaviy boshqaruvs uslubini aks ettiradi. Investitsiyalarning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgani barqaror daromadga erishish niyatini bildiradi, ammo debitor qarzlarning ortishi va pul oqimi pastligi likvidlik bosimiga olib kelmoqda. Shu boisdan, kichik biznes subyektlarida moliyaviy monitoringni kuchaytirish, real vaqtli tahlil vositalarini joriy etish va qisqa muddatli aktivlar bilan ishslash samaradorligini oshirish zarur.

2-jadval

Passivlar va majburiyatlar tuzilmasi (ming so'mda)

Passivlar va manbalar	2023-yil oxiri	2024-yil oxiri
Ustav fondi	260 434 970	260 434 970
Nomaqsadli foyda	53 264	138 457
Zaxiraviy kapital	2 454 944	2 454 944
Uzoq muddatli majburiyatlar (jami)	203 439 661	204 543 185
- Uzoq muddatli qarzlar	76 483 139	82 804 055
- Bank kreditlari va qarzlar	126 956 522	121 739 130
Joriy majburiyatlar (qisqa muddatli)	129 534 604	142 319 312
- Shundan: kreditor qarzdorlik	70 756 971	76 657 621
- Mehnat haqi, budjet to'lovlari, avanslar	9 534 474	12 263 094
Jami passivlar	599 307 822	613 281 247

Manba: <https://openinfo.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi>.

Uzoq muddatli kreditlarning kamaygani investitsion risklarni pasaytirgan. Shunga qaramay, joriy majburiyatlarning o'sishi (13 mlrd so'mga) aylanma mablag'lar yetishmovchilagini bildiradi.

Ustav fondi barqaror saqlangan bo'lsa-da, korxonaning operatsion qarzlari ortgan.

3-jadval

Moliyaviy natijalar (foyda va zarar) (ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2024-yil
Davr xarajatlari (operatsion)	1 622 163
- Shu jumladan: boshqaruv xarajatlari	795 407
- Boshqa operatsion xarajatlar	826 756
Moliyaviy daromadlar	1 977 217
Moliyaviy xarajatlar	481 604
Asosiy faoliyat foydasi	1 410 420
Umumiy foyda	85 193

Manba: <https://openinfo.uz> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

“O‘zagroservis” AJning 2023–2024-yil moliyaviy hisobotlari asosida olib borilgan tahlillar korxonaning moliyaviy barqarorligi, daromadlilik salohiyati va investitsion imkoniyatlari haqida muhim xulosalar chiqarishga asos yaratadi.

Hisobot davrida moliyaviy daromadlar (1,97 mlrd so‘m) moliyaviy xarajatlarga (481 mln so‘m) nisbatan to‘rt barobar ko‘pligi, korxonaning moliyaviy instrumentlar — xususan qimmatli qog‘ozlar, depozitlar yoki boshqa daromad keltiruvchi aktivlar bilan samarali operatsiyalar yuritayotganidan dalolat beradi. Bu holat investitsiyaviy faoliyatda konservativ va yuqori samarali strategiyaning qo‘llanilayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, sof foydaning miqdori (85 mln so‘m) korxonaning umumiy aktivlariga nisbatan past bo‘lishiga qaramasdan, xarajatlar bilan uzlusiz va vaqtida hisob-kitob qilinayotganini ko‘rsatmoqda. Ya’ni, foyda nisbatan kam bo‘lsa-da, to‘lov intizomi va moliyaviy javobgarlik darajasi yuqori saqlanib qolgan.

Tashkilot aktivlarining katta qismini (taxminan 69%) uzoq muddatli investitsiyalar tashkil etadi. Jumladan, qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy sarmoyalarga yo‘naltirilgan mablag‘lar 422 mlrd so‘mni tashkil etib, bu korxonaning uzoq muddatli barqarorlikka intilayotganini tasdiqlaydi. Bu investitsiya salohiyatining yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lib, “O‘zagroservis” AJ moliyaviy xavf-xatarlardan himoyalanganligini bildiradi.

Biroq, balansdagi boshqa ko‘rsatkichlar chuqur tahlil qilinib, ayrim muammoli jihatlar ham aniqlangan. Jumladan, debitor qarzlarning 2023-yildagi 72,8 mlrd so‘mdan 2024-yilda 84,3 mlrd so‘mgacha oshgani korxonaning pul oqimlari kechikayotganini anglatadi. Bunga qo‘sishimcha ravishda, joriy majburiyatlarning ortib borayotgani (142,3 mlrd so‘mgacha yetgani) qisqa muddatli likvidlik bosimining kuchayganini bildiradi. Bu esa moliyaviy oqimlarni yanada avtomatlashtirish va monitoring qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy fikrlarni bayon etishimiz mumkin:

Investitsiya salohiyati yuqori. Korxona uzoq muddatli aktivlarga faol sarmoya kiritmoqda, bu esa uning kapital bozorida uzoq muddatli ishonchli o‘yinchiligi sifatida mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Likvidlik muammolari mavjud. Debitorlik va qisqa muddatli qarzlarning o‘sishi moliyaviy resurslar aylanish tezligining sustlashganini ko‘rsatadi.

Moliyaviy daromadlilik barqaror. Foiz daromadlari yuqori bo‘lib, bu umumiy moliyaviy strategiyaning to‘g‘ri yo‘nalganligini tasdiqlaydi.

“O‘zagroservis” AJ 2024-yil holatiga ko‘ra o‘z moliyaviy asoslarini saqlab qolgan, ammo pul oqimlari va joriy majburiyatlar bo‘yicha ehtiyojkorlik siyosatini kuchaytirish zarur.

Muhokama: Kichik biznes subyektlari zamonaliviy iqtisodiyotda bandlikni ta’minlovchi, innovatsiyalarni tez joriy qiluvchi va hududiy rivojlanishning katalizatori sifatida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida kichik biznesda moliyaviy resurslarni boshqarish tizimiga oid mavjud holat, mavjud muammolar va ularni hal qilish strategiyalari, xususan, “O‘zagroservis” AJ faoliyati misolida o‘rganildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, eng muhim muammolardan biri bu — moliyaviy axborotning fragmentarligi va moliyaviy rejalashtirishning sustligidir. “O‘zagroservis” AJ misolida ham ko‘rinadiki, mavjud buxgalteriya axborotlari ko‘proq soliqqa oid ma’lumotlarni qamrab oladi, lekin pul oqimlarini strategik boshqarish, rentabellikni real vaqt rejimida baholash yoki kredit xavfini monitoring qilish tizimi mavjud emas. Korxona balansida debitor qarzlarning 2023-yildagi 72,8 mlrd so‘mdan 2024-yilda 84,3 mlrd so‘mgacha ortganligi bu boradagi muammolarni ochiq aks ettiradi.

Ikkinci muammo — kreditga kirish imkoniyatlarining cheklangani. Aksariyat banklar kichik korxonalarni yuqori riskli deb hisoblab, ularga yuqori foiz stavkalarida kredit ajratadilar. “O‘zagroservis” AJ faoliyatida ham bu holat o‘z aksini topgan: kompaniya qisqa muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirishda ko‘proq o‘z mablag‘i va uchinchi tomon qarzlariga tayangan. 2024-yilda joriy majburiyatlar hajmi 142,3 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa, uzoq muddatli qarzlar 204,5 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu moliyaviy resurslarning yetarli darajada diversifikatsiya qilinmagani va kredit siyosatining risklarga mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi.

Uchinchi muammo — debit va kredit balanslarining nomutanosibligi, bu holat ham “O‘zagroservis” AJ faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, korxonaning joriy majburiyatları ortib borayotgan bo‘lsa-da, pul mablag‘lari qoldig‘i 263 mln so‘m atrofida bo‘lib, bu umumiyl aktivlarning atigi 0.04 foizini tashkil qiladi. Likvidlik darajasining pastligi, ayniqsa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida, uzuksiz ishlashni xavf ostida qoldirishi mumkin.

Shu bilan birga, ijobiyl jihatlar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy daromadlar moliyaviy xarajatlardan to‘rt barobar yuqori bo‘lishi (1,97 mlrd so‘mga nisbatan 481 mln so‘m) kompaniya tomonidan moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanilayotganini bildiradi.

Bu “O‘zagroservis” AJning kapitalni foizli aktivlarga joylashtirishdagi strategik yondashuvi yaxshi ishlayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari, xususan “O‘zagroservis” AJ misolida, fintech imkoniyatlaridan foydalanish, ERP tizimlarni joriy etish, KPI va pul oqimlarini rejalashtirish bo‘yicha tajribaning sustligi kuzatilmoqda.

Aksariyat hollarda moliyaviy qarorlar his-tuyg‘ularga asoslanib, oldindan rejalashtirish va tavakkal bahosi e’tibordan chetda qoladi.

Xulosa.

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy mustaqilligi va resurslardan samarali foydalanishi ularning iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardandir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar faoliyatida moliyaviy rejalahshtirish va monitoring tizimlarining yetishmasligi, debitorlik va kredit qarzlar balansining nomutanosibligi, shuningdek, bank kreditlariga cheklangan kirish imkoniyatlari asosiy muammolar qatoriga kiradi. "O'zagroservis" AJ misolida olib borilgan tahlillar bu muammolarni amaliy jihatdan tasdiqladi hamda ularni yechish uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi.

Xususan, moliyaviy resurslarni boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish, fintech asosidagi kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, hamda pul oqimlarini tahlil qilishga asoslangan KPI va likvidlik ko'rsatkichlari orqali strategik qarorlar qabul qilish samaradorlikni oshiradi. Shu boisdan, kichik biznes uchun moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirishda davlat qo'llab-quvvatlovi, texnologik integratsiya va moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish ustuvor yo'naliш sifatida e'tiborga olinishi lozim.

REFERENCES

1. Rahimov A. (2019). Kichik biznesda moliyaviy menejment. – Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
2. Tashpulatova D. (2021). Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning regional yondashuvlari. – "Moliyaviy tahlil" jurnali, №3, 45–53-b.
3. Gulomova M. (2020). Kichik biznesda innovatsion moliyaviy yondashuvlar. – "Biznes va Boshqaruв", №1.
4. Xусаинов Б.К. (2021). Финансовое планирование в малом бизнесе. – Москва: Финансы и статистика.
5. Поляков А.Н. (2020). Малый бизнес и финансовая устойчивость: проблемы и решения. – "Экономика и управление", №6, 87–92-б.
6. Никулина Е.В. (2018). Финансирование МСП: барьеры и перспективы. – Журнал "Банковское дело", №4.
7. Nakamura Y. (2017). Cash Flow-Based Management in Japanese SMEs. – Tokyo: Keio Business Review, Vol. 34.
8. Tan H.L. (2022). Digital Financial Platforms and SMEs in Southeast Asia. – Singapore Economic Review, Vol. 67(2), 101–119.
9. Müller R. (2019). SME Finance in Europe: Policy Gaps and Solutions. – Brussels: European Policy Brief Series.
10. Caputo A. (2023). Financial Strategy and Growth of European SMEs. – Journal of Small Business Management, Vol. 61(1).
11. Altman E.I. (2018). SME Financial Health and Bankruptcy Prediction. – New York: NYU Stern Working Paper Series.
12. Berger A.N. & Udell G.F. (2020). Financing SMEs: Bank Involvement and Credit Constraints. – Journal of Banking and Finance, Vol. 112.
13. OECD. (2022). Financing SMEs and Entrepreneurs 2022: OECD Scoreboard. – Paris: OECD Publishing.

14. Accenture Research. (2024). Fintech Solutions Empowering Small Business Finance. – Global SME Report Series.
15. Karimov F.A. (2020). Kichik biznesning moliyaviy strategiyasini takomillashtirish yo‘llari. – “Iqtisodiyot va moliya” jurnali, №4.
16. Usmonov A. (2023). Biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda tahliliy yondashuvlar. – “Innovatsion rivojlanish”, №2.
17. <https://openinfo.uz/>